

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17013966>

## BANKLARARO RAQOBAT SHAROITIDA DEPOZIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

*Shamsiyev Nurbek Fazliddin o‘g‘li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot*

*universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*Tel: +99895-000-00-30*

*Annotatsiya.* Maqolada depozitlarning mohiyati va depozit operatsiyalarining mohiyati yoritilgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit operatsiyalari tahlil qilingan. Mamlakatning amaldagi qonunchiligi talablari bank muassasalarining depozit bazasini oshirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan maqolada milliy bank tizimi uchun tijorat banklari depozitlarining kengayishiga yordam beradigan yangi turdagi depozitlar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, qog‘ozda onlayn omonatlarning mazmun-mohiyati, mahalliy tijorat banklari amaliyotida qo‘llanilishi, onlayn omonatning banklar uchun ham, omonatchilar uchun ham afzalliklari o‘z aksini topgan. Banklararo raqobat sharoitida depozit siyosatini takomillashtirish yo‘llari yoritib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* bank, xizmat, bank operatsiyasi, omonat, kredit, masofaviy bank xizmatlari, bank kartalari, innovatsiya, onlayn xizmat, mijoz, diversifikatsiya.

### **Kirish.**

Bank tizimini isloh qilish va bank muassasalari faoliyatini xalqaro standartlarga va bank faoliyatining tegishli yo‘nalishlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq tashkil etish mahalliy banklarning depozit va kredit siyosatiga qo‘yiladigan me‘yoriy-huquqiy talablarni takomillashtirishni, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash hamda bank depozitlarining yangi jozibador turlarini joriy etish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlarining bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirilyapti.

Keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, chora-tadbirlar natijasida bank tizimida qabul qilingan tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash va bankdan tashqari pul aylanmasini qisqartirish imkonini beradi.

Hozirgi sharoitda tijorat banklari tarmog‘ining kengayishi munosabati bilan depozitlar, banklararo kreditlar va boshqa bank resurslari uchun raqobat kuchaymoqda.

Omonatlarni jalb qilish banklarning asosiy operatsiyalaridan biridir. 2020–2024 yillar davomida tijorat banklarining soni 36 taga yaqinlashdi, ularning aksariyati universal banklar hisoblanadi. Tijorat banklari aktivlarining o‘sishi, kredit portfeli hajmining kengayishi va mijozlar bazasining ortib borishi, bank xizmatlari samaradorligining oshayotganligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020 yil 12 maydagi PF-

5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

### Asosiy qism

Tijorat banklari O'zbekistonda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida aholi va korxonalar uchun moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi. Ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarini kreditlash orqali o'sish va rivojlanishni ta'minlaydi. Tijorat banklari orqali milliy iqtisodiyotga mablag'lar oqimining samarali yo'naltirilishi mumkin, bu esa O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorligi uchun zarur. Tijorat banklari – bu jismoniy va yuridik shaxslarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan, jamg'armalarni jalb qilib, kreditlar ajratish va pul oqimlarini boshqarish bilan shug'ullanadigan muassasalardir. Banklar orqali aholi va tadbirkorlik subyektlari o'z jamg'armalarini saqlash, mablag'larini samarali boshqarish va bizneslarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Banklarning kelib chiqish tarixidan ma'lumki, bank muassasasi yig'ilib, bo'sh turgan mablag'larni bir qator shartlar asosida ustama haq (foiz) bilan qarz berish ya'ni, hozirgi kredit berish asnosida tashkil topgan va bu hozirgi vaqtgacha banklarning asosiy daromad keltiradigan xizmati hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank depoziti bo'yicha ko'plab tariflar keltirilgan. Jumladan:

Depozit – yuridik va jismoniy shaxslarning bank operatsiyalari natijasida mijozlarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, omonatlarni (depozit) qabul qilish va qarz majburiyatlari (depozit va omonat sertifikat, veksel, obligatsiya) ko'rinishidagi o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish bo'yicha jalb qilingan mablag'laridir .

Depozitlar – bank qonunchiligi va tartiblariga muvofiq mijozlar (jismoniy va yuridik shaxslar) tomonidan bankka qo'yilgan va ular tomonidan foydalaniladigan pul mablag'lari .

Bank depozitlari – saqlash uchun bank muassasalariga joylashtirilgan pul mablag'laridan iborat. Bu depozitlar omonat hisobvaraqlari, chek hisobvaraqlari va pul bozori hisobvaraqlari kabi depozit hisobvaraqlariga kiritiladi. Hisobvaraqa egasi hisobvaraqa shartnomasini tartibga soluvchi shartlarda ko'rsatilganidek, omonatga qo'yilgan mablag'larni yechib olish huquqiga ega .

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari banklarning resurs bazasida muhim o'rin egallaydi. Tijorat banklarining depozit bazasi hajmi qanchalik ko'p va mustahkam bo'lsa, banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish ko'lami shunchalik kengayadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklar balans passivining asosiy ulushini majburiyatlar (jalb qilingan mablag'lar) tashkil etib, ular jami bank resurslarining tarkibida 85-90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarining muddati va vujudga kelish manbasiga qarab, “barqaror” va “beqaror” mablag'larga,

ular uchun to‘lanadigan harajatlar miqdoridan kelib chiqib, “arzon” va “qimmat” mablag‘larga ajratish mumkin .

Depozitlarning turlari:

- talab qilib olinguncha depozitlar;
- jamg‘arma depozitlari;
- muddatli depozitlar;
- jamg‘arma (depozitli) sertifikatı;
- boshqa depozitlar.

Talab qilib olinguncha depozitlar – yuridik va jismoniy shaxslarning kundalik maqsadlar uchun hohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin bo‘lgan talab qilib olinguncha hisobvaraqlardagi mablag‘laridir. Bank depozitorning birinchi talabiga ko‘ra (depozit shartnomasida boshqa muddatlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, depozitorning tegishli ko‘rsatmasi bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechikmagan holda) uning to‘lovlari bo‘yicha topshirig‘ini bajarishi zarur. Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun haq to‘lash shartnomada belgilangan miqdorda amalga oshiriladi. Hisobvaraqa undagi qoldiqning o‘rtacha miqdori oldindan kelishilgan holda bank bepul xizmat ko‘rsatadi. Mijoz tomonidan ushbu shartlarga rioya qilinmagan taqdirda, ya‘ni hisobvaraqa qoldig‘ining kelishilgan miqdori kamaytirilsa, mijoz bankning pul-hisob-kitob operatsiyalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha operatsiyalari xarajatlarini bank bilan mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan miqdorda to‘laydi.

Jamg‘arma depozitlari-davriy badallar asosida shakllanadigan jamg‘arma depozitlari muayyan maqsadni amalga oshirish uchun depozit hisobvaraqa ma‘lum miqdorda pul summasini jamlash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar nomiga ochiladi.

Muddatli depozitlar-banklar tomonidan jalb qilingan muddatli depozitlar – yuridik va jismoniy shaxslarning shartnomada qat‘iy kelishilgan muddat va unda ko‘rsatilgan foizlarni to‘lashga doir mablag‘laridir.

Muddatli depozitlar qo‘yidagi muddatlar bo‘yicha tasniflanadi:

- muddati 30 kungacha bo‘lgan depozitlar;
- muddati 90 kungacha bo‘lgan depozitlar;
- muddati 180 kungacha bo‘lgan depozitlar;
- muddati 365 kungacha bo‘lgan depozitlar;
- muddati 365 kundan ortiq bo‘lgan depozitlar

Jamg‘arma (depozit) sertifikatı – bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat egasining) sertifikatni bergan bankdan yoki uning har qanday filialidan belgilangan muddat tugaganidan so‘ng omonat summasini va sertifikatda shartlashilgan foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi qimmatbaho qog‘ozdir.


Jamg‘arma (depozit) sertifikatlari taqdim etiladigan yoki egasi ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin. Jamg‘arma (depozit) sertifikatı muddatidan oldin to‘lash uchun taqdim etilgan hollarda, agar depozit shartlariga ko‘ra foizlarning boshqa miqdori

belgilanmagan bo‘lsa, bank ushbu sertifikat bo‘yicha talab qilib olinguncha depozitlar uchun to‘lanadigan omonat summasini va foizni to‘laydi.

### Tahlil va natijalar.

Tahlillarga ko‘ra, 2025 yilning birinchi yanvar holatiga ko‘ra, tijorat banklarining aholi omonatlari 122,421 trln. so‘m va yuridik shaxslarning depozitlari 186,272 trln. so‘mni tashkil etib, mazkur ko‘rsatkich mos ravishda 2018 yil birinchi yanvar holatiga nisbatan 10,1 va 3,92 barobarga oshganligini ko‘rish mumkin. (1-rasm)


Tijorat banklarining raqobatbardoshligini baholashda ularning moliyaviy ko‘rsatkichlari, xizmatlar turlari, texnologik imkoniyatlari va mijozlar bilan ishlash sifati asosiy omillar sifatida qaraladi. Ushbu maqolada ATB “Asakabank” va ATB “Turonbank” faoliyati ushbu mezonlar asosida solishtirma tahlil qilinadi.



1-rasm. Tijorat banklari aholi va yuridik shaxslar depozitlari qoldiqlari <sup>76</sup> (mlrd. so‘m)


2-rasm ma‘lumotlaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, 2016-yilda 359213006 ming so‘m talab qilib olinguncha va 107857398 ming so‘m miqdorida muddatli depozitlar jalb qilingan bo‘lsa, 2024-yilda esa 1185120398 ming so‘m talab qilib olinguncha depozit hamda 4003136595 ming so‘m muddatli depozitlarni tashkil qilgan. ATB “Turonbank”da 2016-yildan 2024-yilda talab qilib olinguncha depozitlar 3,3 barobar hamda muddatli depozitlar ushbu yillarda 37 barobar ortganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, ATB “Turonbank”ka jalb qilingan mablag‘larning ortib borayotganligidan dalolat berib turadi.

<sup>76</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. ATB “Turonbank” ning depozit portfeli 2016-2024-yillar kesimida. (ming. Soʻmda)<sup>77</sup>

3-rasm maʼlumotlaridan tahlil qiladigan boʻlsak, 2016-yilda 4622164404 ming soʻm depozitlar jalb qilingan boʻlsa, kredit va lizing operatsiyalari miqdori 3355868334 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilda esa 16986984011 ming soʻm depozitlar jalb qilgan hamda kredit va lizing operatsiyalari miqdori esa 38903985133 ming soʻmni tashkil qilgan.



3-rasm. ATB “Asakabank”ning kredit va lizing hamda depozit operatsiyalari miqdori yillar kesimida(Ming soʻmda)<sup>78</sup>

<sup>77</sup> ATB “Turonbank”ning hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>78</sup> ATB “Asakabank”ning yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

АТБ “Asakabank”da 2016-yildan 2024-yilda depozitlar miqdori 3,7 barobar hamda kredit va lizing operatsiyalari miqdori esa ushbu yillarda 11,6 barobar ortganini ko’rishimiz mumkin. Bu esa, АТБ “Asakabank”ka jalb qilingan mablag’larning hamda kredit va lizing operatsiyalari miqdori ham ortib borayotganligidan dalolat berib turadi.

Ko’pgina mamlakatlarda onlayn depozitlar ulushi har yili ortib bormoqda. Onlayn depozitlar asosan jismoniy shaxslarga bankka bormasdan mobil banking orqali omonat ochish imkonini beradi.

Onlayn omonatning bir qancha afzalliklari bor, jumladan:

- omonat kassasiga tashrif buyurish, depozit hisobvarag’ini ochish, kassaga pul o’tkazish yoki omonat qo’yish uchun qo’shimcha vaqt talab etilmaydi;
- omonat bo’yicha hisoblangan foizlarni boshqa plastik kartaga o’tkazish yoki mablag’lardan kommunal va boshqa to’lovlarni to’lash uchun foydalanish imkoniyati;
- mobil banking dasturi orqali pul mablag’larini kiritishda omonat shartlari bilan tanishish va elektron taklifni tasdiqlash;
- omonat bo’yicha hisoblangan foizlar va boshqa barcha daromadlar to’g’risida mobil telefonga SMS-xabar jo’natish va h.k.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, onlayn bank omonatlariga mablag’larni jalb qilish uchun tijorat banklari uchun reklama tadbirlarini o’tkazish va mijozlarga xizmat ko’rsatishni yaxshilash zarur, ya’ni. tijorat banklarining mobil banking tizimining uzluksiz ishlashini hech qanday xatosiz ta’minlash va call-markaz operatorlarini omonat to’g’risidagi to’liq ma’lumotlarga ega bo’lishini tashkil etish zarur, chunki bank omonat shartnomasini tuzishdan avval mijozga ma’lumotni og’zaki ravishda taqdim etadi. Omonat turi, omonat muddati va omonat shartlari haqida. Bundan tashqari, onlayn depozitlar hajmini oshirish uchun aholini onlayn depozitlarning afzalliklari haqida xabardor qilish maqsadga muvofiq bo’lardi, bu esa o’z navbatida O’zbekistondagi tijorat banklariga bo’sh pul mablag’larini jalb qilish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI**

1. O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi yangi taxriri “O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risida”gi Qonun.
2. O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi yangi taxriri “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonun.
3. O’zbekiston Respublikasining To’lovlar va to’lov tizimlari to’g’risida Qonuni 01.11.2019 yildagi O’RQ-578-son
4. Tijorat banklarining depozitlari to’g’risidagi ma’lumotlar. [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <http://www.cbu.uz/uzc/statistics/bankstats/> (kirish sanasi: 06/10/2020).
5. Myts I.Yu. Rossiya Federatsiyasida tijorat banklarining depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish. “SCI-ARTICLE.RU” elektron davriy ilmiy jurnali, 2017 yil 45-son (may), 25-bet. [Elektron resurs]. Kirish rejimi: [http://sci-article.ru/number/05\\_2017.pdf/](http://sci-article.ru/number/05_2017.pdf/) (kirish sanasi: 06/13/2020)

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari
7. ATB “Turonbank”ning yillik hisobotlari
8. ATB “Asakabank”ning yillik hisobotlari